

**“Qishloq xo‘jaligi” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muommalarni hal etish
va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
3.	Global iqlim o‘zgarishi sharoitida lalmi maydonlarda mikrobiologik preparatlar qo‘llash orqali tuproq biogenligi va unumdorligini oshirish hamda organik mahsulot yetish tirishni ko‘paytirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: -O‘zbekiston Respublikasida mavjud lalmikor yerlarning muammoli hududlarini tanlab olish, tajriba uchun ajratilgan hudud tuproqlarining mikrobiologik tarkibini tahlil qilish; -tarkibida o‘simliklarni o‘stirish va kasalliklardan (ayniqsa, bug‘doyga spesifik bo‘lgan) himoya qilish xususiyatiga hamda namlikni uzoq vaqt davomida ushlab turish xususiyatlariga ega bo‘lgan shtammlar va vositalar saqlovchi mikrobiopreparatlar yaratish va ularni lalmi tuproq sharoitida ekinlarni yetishtirishga va hosildorligiga ta‘sirini aniqlash; -tuproqning kimyoviy va mikrobiologik tarkibi hamda fizik holatiga mutanosib ravishda, lalmi yerlar uchun spesifik bo‘lgan mikrob preparatlarini tanlash; -yaratilgan yangi turdagi mahalliy mikrobli preparatning qishloq xo‘jaligi ekinlariga ishlatish sarf me‘yorlarini aniqlash va sinovlardan o‘tkazish; -tadqiqotlar asosida tanlangan yoki yaratilgan mikrobiopreparatlarning tuproqda gumus hosil qilish jarayonlariga, lalmi ekinlarni o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta‘sirini o‘rganish; -tanlangan (yaratilgan) mikrobiopreparatni iqtisodiy samaradorligini baholashdan iborat. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi - Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.